

## EKSPORTGA KO'RSATILADIGAN MOLIYAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

**Lapasov Shaxzod Anvar o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi

Email: [shahzodlapasov@mail.ru](mailto:shahzodlapasov@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola orqali har bir mamlakatda xalqaro savdo va xalqaro kapital bozorida faol ishtirokini taminlashda eksport va import munosabatlarining qanchalik muhimligi, shuningdek moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda xorij tajribasini o'rgangan holda qanday joriy etish chora-tadbirlari batafsil yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** eksport, import, kredit, eksimbank, Shevsiya, Germaniya, AQSH, COFACE, Fransiya, EKN, ERG, EULER HERMES, ECGD, SAGE, davlat mulkchiligi, xususiy mulkchilik, aralash mulkchilik, Yevropa Ittifoqi.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье подробно описано значение экспортно-импортных отношений в обеспечении активного участия в международной торговле и международном рынке капитала в каждой стране, а также способы реализации мер на основе изучения зарубежного опыта развития финансовых услуг.*

***Ключевые слова:** экспорт, импорт, кредит, эксимбанк, Швейцария, Германия, США, COFACE, Франция, EKN, ERG, EULER HERMES, ECGD, SAGE, государственная собственность, частная собственность, смешанная собственность, Европейский Союз,*

### ANNOTATION

*This article describes in detail the importance of export and import relations in ensuring active participation in international trade and the international capital market in each country, as well as how to implement measures based on the study of foreign experience in the development of financial services.*

***Keywords:** export, import, credit, eximbank, Switzerland, Germany, USA, COFACE, France, EKN, ERG, EULER HERMES, ECGD, SAGE, state ownership, private ownership, mixed ownership, European Union,*

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksport faoliyatini moliyalashtirish yoki eksportga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda nobank strukturalar ham juda faol ishtirok etishib, ular bank strukturalarining bu boradagi faoliyatini to'ldirib borish bilan birga turli shakldagi banklar bilan bir qatorda moliyaviy xizmatlar portfelining ham kengayishiga muhim ta'sir ko'rsatishmoqda. Biz ushbu paragrafda tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda xorijiy mamlakatlarda eksportni moliyalashtirishda o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan eksport kredit agentliklari va eksimbanklarni rivojlantirish bo'yicha tajribalarni ko'rib chiqamiz.

Eksport kredit agentliklari. Jekyuz Melits va Patrik Messerlinlarning ta'kidlashlaricha, hozirgi paytda eksport kredit agentliklari katta biznesga aylanib bormoqda[1]. Darvoqe, bugungi kunda eksport kredit agentliklari deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Masalan, Fransiyada COFACE, Shveysariyada EKN, Shveysariyada ERG, Germaniyada EULER HERMES, Angliyada ECGD, Italiyada SAGE, AQSH da US Ex – Im Bank va boshqalar fikrimizga yaqqol misol bo'ladi.

Eksport kredit agentliklari davlat tomonidan mahalliy mahsulotlar eksportini qo'llab – quvvatlash, milliy iqtisodiyotdagi turli xil tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Bir qancha mamlakatlarda bittadan ko'p bo'lgan eksport kredit agentliklari ham faoliyat ko'rsatishadi: masalan, Hindistonda Export Credit Guarantee Corporation of India Ltd. va Ex – Im Bank of India, Yaponiyada bo'lsa Japan Bank for International Cooperation va Nippon Export and Investment Insurance.

Eksport kredit agentliklari keng ko'lamdagi xizmatlarni taklif etishib, bunday xizmatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: tashqi savdo operatsiyalarini kreditlash; eksport kreditlari bo'yicha davlat kafolatlarini taqdim etish; eksport kreditlari va bitimlarini siyosiy, tijorat, umumiy iqtisodiy va boshqa turdagi risklardan sug'urtalash. Bundan tashqari, eksport kredit agentliklari nomoliyaviy xizmatlarni ham, jumladan eksport qiluvchilarni tashkiliy va axborot – analitik qo'llab – quvvatlashni amalga oshirishadi. Xideki Funatsuning ta'kidlashicha, eksport kredit agentliklari milliy eksportni qo'llab – quvvatlash dasturlari doirasida moliyalashtiruvchi bank va ishlab chiqaruvchi korxonaning risklarini sug'urta orqali qoplashni taklif etishadi. Har qanday mamlakatdagi eksport kredit agentligi o'z iqtisodiy siyosatiga ega bo'lib, risklarni sug'urtalashda o'zining shaxsiy ustuvorliklarini belgilaydi[2].

Eksport kredit agentliklari turli mulkchilik shakllarida tashkil qilinishi mumkin bo'lib, quyidagi jadvalda bunga yanada aniqlik kiritilgan:

## 1 - jadval

## Eksport kredit agentliklarining mulkchilik shakllari[3(29)]

<b>Davlat mulkchiligi shaklidagi eksport kredit agentliklari</b>	<b>Xususiy mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklari</b>	<b>Aralash mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklari</b>
<i>Eksport kredit agentliklarining katta qismi davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar bo'lib, AQSH dagi Eximbank, Yaponiyadagi NEXI va Buyuk Britaniyadagi ECGD lar bular orasidagi eng taniqlilari sanaladi.</i>	<i>Xususiy mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklarining soni ancha kam bo'lib, bu bevosita bunday tashkilotlar maqsadi va faoliyatining o'ziga xos jihatlarga bog'liq bo'ladi. Eng tanilgan xususiy eksport kredit agentliklari bo'lib Euler Hermes (Germaniya), COFACE (Fransiya) va Atradius (Gollandiya) lar hisoblanishadi. Shuningdek, Portugaliya, Litva, Gresiya, Avstriya va Argentinada ham xususiy eksport kredit agentliklari faoliyat yuritishadi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, hatto to'liq xususiy bo'lgan eksport kredit agentliklari ham eksport qiluvchilarni moliyaviy qo'llab – quvvatlashni davlat hisobidan va davlatning nazorati ostida amalga oshirishadi.</i>	<i>Davlat mulkchiligi va xususiy mulkchilik shakllaridagi eksport kredit agentliklaridan tashqari aralash mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga Braziliyadagi SBCE, Ispaniyadagi CESCE, Shvesiyadagi SEK va Misrdagi ECGE kabilarni kiritish mumkin.</i>

Endi eksport kredit agentliklari bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlarning tajribalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Germaniyaning Euler Hermes eksport kredit agentligi eng tarixiy va yirik agentliklardan biri bo'lib, u tashqi savdo bitimlari bo'yicha sug'urta qoplamasini taqdim etishga ixtisoslashadi. "Euler Hermes" Gollandiyaning "Atradius" va Fransiyaning "COFACE" eksport kredit agentliklari bilan bir qatorda dunyo miqyosida kredit operatsiyalarini sug'urtalash bo'yicha yetakchi hisoblanadi. U tashqi savdo operatsiyalarini siyosiy va tijorat risklaridan sug'urtalashning turli – tuman shakllarini taklif etib, quyidagi uchta sug'urta polisi ular ichidagi asosiylari sifatida e'tirof etiladi:

maxsus polis – xorijiy davlat yoki xususiy kompaniyalar bilan bir martalik bitimlarni amalga oshiradigan nemis eksport qiluvchilari uchun qisqa, o‘rta va uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha taqdim etishga mo‘ljallanadi; qisqa muddatli yangilanuvchan polis – faqat bitta xorijiy davlat yoki kompaniyaning o‘ziga doimiy eksportni amalga oshiradigan milliy eksport qiluvchilar uchun taklif etiladi; global polis – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti[4] yoki Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirmagan mamlakatlardagi bir necha xaridorlar (xususiy firmalar) bilan bitimlarni amalga oshiradigan tovarlar yoki xizmatlar eksport qiluvchisi uchun 12 oylik muddatga berilgan kredit bo‘yicha taqdim etiladi.

Fransiyaning “COFACE” eksport kredit agentligi tijorat risklari sohasida ekspert va dunyo miqyosida kredit operasialarini sug‘urtalash sohasida yetakchi hisoblanadi. Ushbu agentlik asosan quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: har qanday kompaniyani hajmi, faoliyat sohasi yoki mamlakatidan qat’iy nazar qo‘llab – quvvatlaydi, ya’ni kompaniyalar ham ichki va ham tashqi bozorda rivojlanadi; kreditni sug‘urtalash sohasida xaridorlarning biznesini bankrot bo‘lish riskidan himoya qilishga qaratilgan yechimlarni taklif etadi; o‘z mijozlari uchun mamlakat, iqtisodiyotning tegishli sektori va kredit riskini har tomonlama puxta tahlil qilish asosida kerakli vaziyatda to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish uchun risklarni baholash va kamaytirishga yordam ko‘rsatadi va h.k.

Eksimbanklar yoxud eksport – import banklari. Jahon mamlakatlarida Eksimbanklar milliy eksportni qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jekyuz Melits va Patrik Messerlin<sup>31</sup> hamda Jagdish N. Bxavatti[5] larning bu boradagi ilmiy – amaliy qarashlari asosida aytish mumkinki, eksimbanklarda amal qiladigan eksportni imtiyozli moliyalashtirish instrumentlari va sxemalari milliy eksport qiluvchilar uchun tashqi bozorlarda yanada kengroq chiqish imkoniyatlarini yaratadi. 2–jadvalda eksimbankka tegishli bo‘lgan umumiy va zarur ma’lumotlar keltirilgan. Quyida Eksimbanklar faoliyatiga oid bo‘lgan xorij tajribasi xususida vaziyatli yondashuvdan kelib chiqqan holda qisqacha ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz:

Xitoy Eksimbanki. Bugungi kunda Xitoy o‘z Eksimbankining kredit sxemalaridan foydalanib, Afrika qit’asi mamlakatlaridagi ta’sirini kengaytirib bormoqda. Bu Xitoyni mineral resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan tashqi strategiyaning bir qismi bo‘lib, buni amalga oshirish orqali yirik Afrika bozoriga jadal sur’atlarda kirib borish maqsadi qo‘yilgan. Bunday vaziyatda Xitoy uchun Afrika qit’asidagi ustunlik shundaki, uning Eksimbanki tomonidan ajratiladigan eksport kreditlari odatda rivojlangan mamlakatlar tomonidan bajarilishi talab qilinadigan ekologik va boshqa shu kabi muammolarni yechish majburiyatlariga ega bo‘lmaydi.

## 2 – jadval

**Eksimbankka oid umumiy va zarur ma'lumotlar[6(33)]**

<b>Eksimbank</b>	<b>Eksimbanklarni tijorat banklaridan farqlovchi asosiy jihatlar</b>
Davlat tomonidan ta'sis etiladi va unga bo'ysunadi	Eksimbanklar faoliyatining maqsadi kredit faoliyatidan foyda olish emas, balki eksportni qo'llab – quvvatlash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi
Faoliyati maxsus qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi	Eksimbanklar xorijiy mamlakatlarning spesifik jihatlari bilan bog'liq bo'lgan yuqori darajadagi iqtisodiy va siyosiy risklarni o'z zimmlariga olishadi
Eksportni qo'llab – quvvatlash maqsadida ta'sis etilib, eksport qiluvchilarga eksportni moliyalashtirish bo'yicha keng ko'lamdagi xizmatlarni taklif etadi	Eksimbanklarning kreditlari eksport shartnomasi o'z mamlakatida to'liq yoki qisman ishlab chiqarilgan tovarlar yoki xizmatlar eksportini nazarga tutgan holdagina beriladi
Ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan mamlakatlarda eksportni moliyalashtirishni amalga oshiradi	Eksimbanklarning davlat hukumatiga dahldorligi tashqi bozordagi mahalliy ishlab chiqaruvchining kreditni qaytara olish layoqati va ishonchliligini oshiradi
Eksport shartnomasida eksimbankni ta'sis etgan mamlakatda to'liq (yoki qisman) ishlab chiqarilgan tovarlar yoki asbob – uskunalarni eksportining nazarga tutilishi sharti bilan kreditlar ajratadi	Eksimbanklarning kreditlari bo'yicha foiz stavkalari tijorat banklarining foiz stavkalaridan past bo'ladi
Eksport kreditlari bo'yicha foiz stavkalari byudjet mablag'lari va tashqi qarzlardan foydalanish hisobiga bozordagidan ko'ra past bo'ladi	
Davlat eksimbank majburiyatlari bo'yicha kafil hisoblanadi	

So‘nggi 10 yil davomida Xitoy Eksimbanki Afrika mamlakatlarida infratuzilmani rekonstruksiya qilish hamda elektrostansiyalar, neft va gazni qayta ishlash ob‘yektlarini qurish uchun 17 mlrd. AQSH dollari hajmidagi kreditlarni taqdim etdi. Bunda aholi bandligi muammolari sezilarli darajada yechimini topayotgan bo‘lib, qurilish materiallari, muhandislik va qurilish texnologiyalari, shuningdek inson resurslari Xitoydan import qilinmoqda[7].

Chexiya Respublikasi. Chexiyaning eksport banki yuqori darajadagi tijorat va siyosiy risklarga ega bo‘lgan bozorlarda mahsulotlarning eksport qilinishini rag‘batlantirish maqsadida yaratilgan. Chex eksport banki kreditlarining 80% ga yaqini yuqori darajadagi riskka ega bo‘lgan mamlakatlarda (ayrim rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda) eksport faoliyatini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, odatdagi tijorat banklari bunday mamlakatlarga kredit berishdan bosh tortishadi. Bu o‘z navbatida chex ishlab chiqaruvchilariga yangi bozorlarni tezda o‘zlashtirish va eksport mahsulotini ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, eksportni moliyalashtirishning katta risk darajasiga egaligi bilan xarakterlanishi bu jarayonda xususiy kompaniyalarga qaraganda davlat tashkilotlarining faol ishtirok etishini talab qilmoqda. Xorij tajribasidan ko‘rinib turganidek, eksport kredit agentliklari va eksimbanklar eksportni davlat tomonidan moliyalashtirish maqsadida rivojlantirilgan tashkilotlar bo‘lib, ulardagi har tomonlama imtiyozli, qulay va zamonaviy tizim tashqi bozorlarda milliy eksport qiluvchilarning raqobatbardoshligini oshishiga imkon yaratmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Jacques Melitz & Patrick Messerlin. *Export credit subsidies. Economic Policy. Vol 2, No 4. (Apr 1987), p. 150. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)*
2. Hideki Funatsu. *Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance. Vol 53, No 4. (Dec 1986). p. 682.*
3. Ushbu jadvalni tuzishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Hideki Funatsu. *Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance. Vol 53, No 4. (Dec 1986) [www.jstor.org](http://www.jstor.org) ; Юлдашев Р. Т. Департамент гарантирования экспортных кредитов // Страховой бизнес: Словарь – справочник. – Москва: Анкил, 2005. – с.35. – 832 с.*
4. Koreya, Meksika va Turkiya bundan mustasno.
5. Jacques Melitz & Patrick Messerlin. *Export credit subsidies. Economic Policy. Vol 2, No 4. (Apr 1987), pp. 149 – 175. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)*
6. Jagdish N. Bhagwatti. *Export - Promoting Trade Strategy: Issues And Evidence. The World Bank Research Observer. Vol 3., No 1. (Jan 1988), pp. 27 – 57. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)*
7. Манба: *Возможности и перспективы создания Эксимбанка в Узбекистане. Доклад. Ташкент 2007.*